

**Farg'ona tumani Xalq ta'limi muassasalari
faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish
bo'limi**

H.Z.Nosirova

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI XOTIN-
QIZLAR QO'MITASI BOSHLANG'ICH TASHKILOTI
FAOLIYATINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH
BO'YICHA**

QO'LLANMA



2012 yil

Har qaysi jamiyatning madaniy darajasi va ma'naviy barkamolligi ayollarga bo'lgan munosabat bilan belgilanadi.

I.Karimov.

UMUMIY O'RTA TA'LIM
MAKTABLARIDA XOTIN-QIZLAR
QO'MITASI BOSHLANG'ICH
TASHKILOTI FAOLIYATINI
YANADA TAKOMILLASHTIRISH
BO'YICHA
QO'LLANMA

Farg'ona tumani Log'on shaharchasi

2012 yil

O'sib kelayotgan qizlarni tarbiyalash, ularni oilaviy hayotga tayyorlash, iqtidorli qizlarni ma'lum bir kasbga yo'naltirish va hunar o'rgatish, qiziqishlari bo'yicha to'g'ri yo'nalishlar berishni kechiktirmay maktab dargohidan boshlash lozim.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish, ularning huquq va erkinliklarini himoyalash, huquqiy savodxonligini oshirish muhim o'rin tutadi.

Ushbu metodik qo'llanmada Xotin-qizlar qo'mitasi boshlang'ich tashkiloti faoliyatini tizimli tashkil etish bo'yicha fikr-mulohazalar bayon etilgan va maktablardagi Xotin-qizlar qo'mitalari faoliyatini rivojlantirish maqsadida tavsiya etilmoqda.

- Tuzuvchi:** Farg'ona tumani 49-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi Xotin-qizlar qo'mitasi boshlang'ich tashkiloti raisi, oliy toifali rus tili fani o'qituvchisi Nosirova Hayotxon Zokirovna
- Taqrizchi:**
1. Farg'ona tumani Xalq ta'limi muassasalari faoliyati metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi metodisti R.Isaqova.
 2. Farg'ona tumani 49-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi "Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari" fani o'qituvchisi I.Iminova.

Farg'ona tumani Xalq ta'limi muassasalarini faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi metodik kengashining 2011 yil 28 iyundagi №__qarori bilan ommalashtirishga tavsiya etilgan.

H.Z.Nosirova. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida Xotin-qizlar qo'mitasi boshlang'ich tashkiloti faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'llanma.

Farg'ona tumani Log'on shaharchasi

2012 yil

Kirish

Mamlakatimizda xotin-qizlarning jamiyatdagi o'рни va nufuzini oshirish, ularning huquq va erkinliklarini himoyalash borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Jumladan, mamlakatimizda xotin-qizlar iqtidori va qobiliyatini ro'yobga chiqarish, ularning siyosiy faoliyatini oshirish, onalik va bolalikni muhofaza qilish, xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash kabi masalalarga qaratilgan 100 dan ortiq xujjatlarga imzo chekildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 25-maydagi "O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi boshlang'ich tashkiloti faoliyatini qo'llab-quvvatlar borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 3434-sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2009-2013 yillarda aholini reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog'lom bola tug'ilishini ta'minlash, jismoniy va barkamol avlodni voyaga etkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2009 yil 1-iyuldagi 1144-sonli qarori fikrimizning dalilidir. Shu misolning o'ziyoq yurtimizda xotin-qizlar masalasiga ustuvor masala sifatida qarab kelinayotganligini ko'rsatib turibdi.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasining Mustaqilik yillarida mamlakatimizda xotin-qizlar siyosati borasida asrlarga tatigulik ishlar amalga oshirildi. Ta'bir joyiz bo'lsa butun dunyo tan olgan bunday olamshumul siyosatning zaminida, albatta, qizlar tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, bugun ota-ona quvonchi bo'lgan qizaloq bog'cha, maktab bag'rida tarbiyalanib, ertaga jamiyatda munosib o'rin egallab, ertangi kunimizning mustahkam va ishonchli poydevorini bunyod etishda faol qatnashadi.

Ushbu qo'llanmada umumiy o'rta ta'lim maktablarida Xotin-qizlar qo'mitasi boshlang'ich tashkiloti faoliyatiga doir tavsiyalar keltirilgan.

1-bo'lim.

Xotin-qizlar qo'mitasi boshlang'ich tashkiloti tarkibini saylash va qilinadigan ishlarni rejalashtirish.

Uzoq yillar tajribalarga asoslanib shunday hulosaga kelindi: rivojlanishning qaysi jabhasi bo'lmasin, ishchi guruh, muayyan tarkib hamda mukammal reja asosida ish olib borilsa maqsadga erishish mumkin.

Shu nuqtai nazardan, Xotin-qizlar qo'mitasi boshlang'ich tashkiloti tarkibiga na'munali, faol, o'z ishini ustasi, hamma sohalarda boshqalarga o'rnak bo'la oladigan qiz-ayollar saylanadi. O'quv yilining birinchi haftasida o'tkaziladigan qo'mita yig'ilishida ishchi guruh tarkibini tuzish masalasi hal qilinadi va quyidagicha tarkibda tuziladi: (5 yoki 7 kundan iborat).

1. Qo'mita boshlang'ich tashkilot raisi: - maktab Xotin-qizlar qo'mitasi boshlang'ich tashkilotining raisi X.Nosirova
2. Kotiba: - O.Abdulfayzova
3. A'zolar:
 1. "Qizlar" kengashi raisi – mehnat fani o'qituvchisi K.Xoshimova
 2. "Zulfiyaxonim qizlari" kengashi raisi – tasviriy san'at fani o'qituvchisi G.Qobilova
 3. 8-"A" sinf qizlar yetakchisi – M.Abdumavlonova
 4. 9-"B" sinf qizlar yetakchisi – D.Shokirova
 5. 8-"B" sinf qizlar yetakchisi – M.Ashurova

A'zolar tarkibiga a'lochi va na'munali hulqli o'quvchi qizlar kiritilishi mumkin.

Qo'mita ishini rejalashtirishda maktab ma'muriyati, ota-onalar qo'mitasi, "O'g'il bolalar" kengashi, mahalla rais va maslahatchilari, tibbiyot hodimlari ishtirok etadilar.

Maktab direktori tomonidan tasdiqlangan rejadagi har bir amalga oshiriladigan ishlar Qomita boshlang'ich tashkiloti raisi tomonidan qat'iy nazorat ostiga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning FF-3434 sonli farmoni bo'yicha qilinadigan ishlar, shuningdek 2009 yil 1-iyuldagi 1144 sonli qaroriga asosan bajarilishi zarur bo'lgan vazifalar xotin-qizlar huquqlarini himoya qiluvchi O'zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan qonunlarda belgilangan vazifalardan kelib chiqishi zarur.

Qonunlar, farmonlar sharhi hamda mahalla, oila va maktab hamkorligi doirasidagi ishlar, turli ko'rik tanlovlar, uchrashuvlar, davra suhbatlari, har bir sinf qizlari bilan suhbatlar, tibbiy ko'rik, tibbiyot hodimlari bilan uchrashuv, ochiq muloqotlar, qizlarni bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkillash, ularni turli to'garak va o'quv markazlariga jalb qilish, o'quvchi qizlarni bevosita turmushga, hayotga tayyorlash kabi masalalar o'z aksini topadi.

(Namunaviy ish reja ilova qilinadi. 1-ilova)

2-bo'lim

Xotin-qizlar qo'mitasi boshlang'ich tashkiloti ishini

hujjatlashtirish.

Qo'mita boshlang'ich tashkiloti yil davomida tasdiqlangan reja asosida faoliyat ko'rsatadi. Unga muvofiq belgilangan muddatlarda mas'ul shaxslar o'zlariga yuklatilgan vazifalarni bajaradilar, ya'ni rejalashtirilgan ishlar bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradilar va Qomita boshlang'ich tashkiloti raisi tomonidan monitoring ishlari olib boriladi.

Maktabning 8,9 sinf qizlari "Qizlar kengashi"ga a'zo hisoblanadilar. Bu sinflarning har biri alohida jildlarda sinf qizlari haqida ma'lumot (har bir qiz uchun alohida) yillik reja, sinfda olib borilgan ishlar yuzasidan oylik hisobotlarni jamlaydi. Sinflardagi qizlar yetakchilari bu hujjatlarni yug'ilishiga mas'uldir. Oylik hisobotlar har oyning ohirgi payshanba kuni xotin-qizlar qo'mitasi kotibiga topshiriladi va bu xisobotlar 2 kun ichida qo'mita ishchi guruhi tomonidan atroflicha o'rganib chiqiladi. Zarur bo'lganda kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida qizlar bilan sinflarda yoki individual ish olib boriladi. Har bir sinf qizlari bilan o'tkazilgan suhbatlar tavsifi alohida daftarga yozib boriladi. Qomita boshlang'ich tashkiloti faoliyatiga doir quyidagi hujjatlarning bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

1. Qo'mitaning ish rejasi va tuzilgan chora tadbirlari. (Qo'mita tarkibi, ayol qizlar haqida ma'lumot)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 25-maydagi "O'zbekiston xotin-qizlar faoliyatini qo'llab quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 3434 sonli farmoni ijrosini taminlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar ijrosi yuzasidan yig'ma jild.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991 yil 10-iyundagi "Zulfiya nomidagi davlat mukofotini ta'sis etish bo'yicha takliflarni qo'llab quvvatlash to'g'risida"gi № 2326 sonli farmoni va 2006 yil 2-fevraldagi "Zulfiya nomidagi davlat mukofoti to'g'risidagi nizomga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi № PF 3717 sonli farmonining ijrosi yuzasidan yug'ma jild.
4. Vazirlar Mahkamasining 473 sonli qarori bo'yicha 9-sinfni bitirib ta'limning keyingi bosqichiga o'quvchilarni tortishning ahvoli bo'yicha yig'ma jild.
5. 8-9 sinf qizlari haqida ma'lumot (yuqorida aytib o'tilgan)
6. "Zulfiya" nomidagi Davlat mukofotiga bo'lgan nomzodlar banki.
7. Is'tedodli o'quvchi qizlarga yaratilgan sharoitlar yuzasidan yig'ma jild.
8. Ta'lim boshqaruv organlarida tashkil etilgan boshlang'ich xotin-qizlar tashkilotlarining voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar va IIB bilan hamkorliklar, olib borilayotgan ishlari yuzasidan yig'ma jild.
9. Maktabda qizlar tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlar, o'z joniga qasd qilish holatlarini oldini olish bo'yicha olib borilayotgan ishlar yuzasidan yig'ma jild.
10. Maktabda mikrohududlar bo'yicha nosog'lom oilalar va ular bilan olib borilayotgan ishlar yuzasidan yig'ma jild.

11. Qishloq fuqarolar yig'ini maslahachilari hamkorligidagi ishlari yuzasidan yig'ma jild.
12. Ijodkor va iqtidorli qizlarni qiziqishlari bo'yicha to'garaklarga jalb etilgan qizlar ro'yxati.
13. Qizlarning ijodiy ishlarini ommaviy axborot vositalari orqali yoritilganligi bo'yicha yig'ma jild.
14. Maktabda "Zulfiyaxonim qizlari" klubi faoliyati bo'yicha yig'ma jild.
15. Maktabda Zulfiya mukofati sovrindorlari bilan uchrashuvlar va boshqa tadbirlar.
16. Maktabda "Zulfiyaxonim qizlari" klubining faoliyat olib borilayotgan yo'nalishlari: (alohida yig'ma jildda bo'ladi).
 - a) Adabiyot (she'riyat, nasr)
 - b) Tikuvchilik (to'qish, biser qadash)
 - c) Rassomchilik (dizayner, modilyer)
 - d) Kashtachilik
 - e) San'at (ashula, raqs)(yig'ma jildda yo'nalish a'zolari ro'yhati olib borilyotgan ishlar, bajarilgan ishlardan na'munalar bo'lishi shart)

3-bo'lim:

Maktab Xotin-qizlar qo'mitasi boshlang'ich tashkiloti qoshidagi tashkil etilgan "Zulfiyaxonim qizlari" klubi faoliyati.

Klubga maktabning tajribali musiqa, adabiyot, chizmachilik, tasviriy san'at fani o'qituvchilari rahbarlik qilishi mumkin. Klubning ish rejasi o'quv yilining boshida qo'mitaning 1-yig'ilishida o'qib eshittiriladi, zarur hollarda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib maktab direktori tomonidan tasdiqlanadi. (Reja ilova qilinadi 2-ilova).

Maktabdagi o'quvchi qizlarning imkoniyat va iqtidorlaridan kelib chiqqan holda zarur, ayni paytda muhim deb hisoblangan yo'nalishlarni tanlaydi. Masalan, maktab qizlari ichida she'r yozishga moyil ijodkor qizlar ko'p bo'lsa, "She'riyat" yo'nalishi, qizlarning bo'sh vaqtlarida qiziqishlariga ko'ra "To'quvchilik", "Bisser qadash", "Kashta tikish", "Tikuvchilik" kabi yo'nalishlar tanlab olinadi.

Har bir yo'nalish bo'yicha a'zolar haqida ma'lumot batafsil to'ldiriladi (ma'lumot na'munasi 3-ilova)

Klub har oyda bir marta belgilangan tartibda yig'ilish o'tkazadi. Yutuq va kamchiliklar atroflicha o'rganilib, maktab, tuman miqyosida o'tkaziladigan iqtidorli qizlar "Zulfiya" nomidagi Davlat mukofatiga nomzodlikka tavsiya etiladi. Bu ishlarning bayoni yozma ravishda qayd etib boriladi. Maktabda "Zulfiyaxonim izdoshlari" deb nomlangan burchak tashkil etilishi lozim, bunda "Zulfiya" mukofoti sovrindorlari haqida ma'lumotlar, "Zulfiya" Davlat Mukofati nima va unga kimlar munosib" mavzularda insholar ko'rik tanlovi natijalari, insholardan na'munalar, "Sizga o'xshagim keladi" mavzusida o'quvchi qizlarning fikr mulohazalari o'z aksini topadi.

Har yili 1-mart Zulfiya tavallud topgan kunni nishonlash maqsadida klub a'zolari tomonidan qiziqarli tadbir o'tkaziladi.

Tadbir adabiy-musiqiy kompazitsiya, ko'rgazma, ko'rik tanlov, mushoira, bellashuv tarzida o'tkazilishi mumkin va albatta tadbir so'ngida klub faoliyatiga baxo beriladi va iqtidorli qizlar rag'batlantiriladi.

(“Zulfiyaxonim izdoshlari” bellashuvining senariysi 4-ilova qilinadi)

4-bo'lim: **“Qizlar kengashi”**

Qizlar kengashi qo'mita tarkibida alohida ish olib boradi, ya'ni maktabdagi barcha o'quvchi qizlarni qamrab oladi, maktabning 8-9-sinf qizlari kengashning yetakchi a'zolari hisoblanadi.

Har bir sinfda qizlar kengashi raislari saylanadi. Unga a'lochi, tashkilotchi va jamoatchi, har tomonlama na'munali qizlar tanlab olinadi. Ular har oyning oxirida oylik hisobot yozishadi va qo'mita ishchi guruhiga topshiradi. Sinf qizlari o'rtasidagi yutuq va kamchiliklar, olib borilayotgan ishlar, turli tashabbus va fikr-mulohazalar bayon etiladi va har bir sinf qizlari uchun belgilangan fayllarga solib qo'yiladi. Belgilangan badal to'lovlarini to'lash va o'z o'rnida sarflash uchun kengash raislari mas'ul hisoblanadilar.

5-bo'lim: **Badal to'lovlar.**

Maktabdagi o'quvchi qizlarni moddiy rag'batlantirish, ular uchun yetarli shart-sharoit yaratish maqsadida qo'mitaning alohida jamg'armasini tashkillash maqsadga muvofiqdir. O'quv yilining 1-yig'ilishida bu masalaga alohida to'xtalib, kelishilgan holda ma'lum bir summa belgilanadi va maktab direktorining buyrug'i bilan oylik badal to'lovi joriy etiladi. (masalan, yuqori 8-9 -sinf qizlarining har biri uchun oyida 200 so'mdan).

Bunda sharoiti og'ir, yordamga muhtoj oila qizlari to'lovdan ozod etiladi. Badal to'lovlarini o'z vaqtida yig'ish va nazorat qilish maqsadida maxsus komissiya tuziladi.(3 yoki 5 kishidan iborat). Komissiya tarkibiga Qomita boshlang'ich tashkiloti raisi, pul mablag'larini vaqtida yig'ish va qo'mitaga topshirish vazifasini bajaruvchi-xazinabon va alohida sarf xarajatlarni nazorat qiluvchi shaxs kiritiladi.

Xazinabon alohida “Badal to'lov”lari haqida daftar yuritadi va sinflar kesimida yig'ilgan pulni, xazinaga (jamg'arma) tushgan mablag'ni qayd etib boradi. Jamg'arma mablag'lari yil davomida qizlarni turli nominatsiyalar (“Eng a'lochi qiz”, “Na'munali qiz”, “Oqila va kamtarin qiz”, “Eng jamoatchi qiz”, “Tashkilotchi qiz”) bo'yicha rag'batlantirish uchun, qizlar ishtirokida o'tkazilgan ko'rik-tanlovlarda, turli musobaqalarda faol va g'olib qizlarni taqdirlash uchun sarflanadi. Sarf-xarajat haqida maxsus komissiyaning dalolatnomasi tuziladi va o'quv yilining oxirida o'tkaziladigan yakuniy yig'ilishida bu haqida ma'lumot beradi.

6-bo'lim.
Mahalla bilan hamkorlik.

Maktabda faoliyat ko'rsatayotgan ayol o'qituvchi hodimlar va o'quvchi qizlarni ijtimoiy muhofaza qilish, ularning olib borayotgan ishlarini qo'llab-quvvatlash va ularga shart-sharoit yaratish, 2012-yil "Mustahkam oila" yili munosabati bilan xotin-qizlar o'rtasida tadbirkorlikni yo'lga qo'yish, ish o'rinlariga ega bo'lishda ularga ko'maklashish haqida "Oila, mahalla va maktab" hamkorligini taminlash maqsadida maktab ma'muriyati, Xotin-qizlar qo'mitasi boshlang'ich tashkiloti va qishloq fuqarolar yig'inidagi barcha mahalla raislari bilan alohida shartnoma tuziladi. Tomonlar o'rtasida imzolangan shartnoma bandlarining bajarilishi qat'iy nazorat ostiga olinadi. (Na'munaviy shartnoma 5-ilovalar).

7-bo'lim.
"Qizlar ovozi" devoriy ro'znomasi.

Maktabdagi xotin-qizlarning faoliyati, ularning olib borayotgan ishlari, yutuqlari, fikr-mulohaza hamda tavsiyalarini o'zida aks ettiruvchi "Qizlar ovozi" devoriy ro'znomasini tashkillash juda muhimdir, chunki undagi rang-barang ma'lumotlar, bayram tilaklari, qiziqarli tavsiyalar va h.k. hech bir ayol qizni befarq qoldirmaydi. Qo'mita yig'ilishida saylangan tahririyat a'zolari (3 yoki 5 kishidan iborat) bunga bevosita ma'sul hisoblanib, yil davomidagi xotin-qizlar o'rtasida olib borilayotgan ishlarni, ularning monitoring to'g'risidagi ma'lumotlarni, qizlar ijodidan na'munalarni 2 haftada bir marta uzluksiz yuritib beradi. Tahririyat a'zolarining olib borgan ishlari, ro'znoma sahifalarining qay darajada tashkillanganligi muhokama qilinib, yig'ilishlarda baho berib boriladi.

Xotin-qizlar qo'mitasi
boshlang'ich tashkilotining 2012-2013 o'quv yili uchun tuzgan
ISH REJASI

1-ilova

№	Qilinadigan ishlar	Mudati	Bajaruvchi shaxs
1	Maktabda faoliyat ko'rsatayotgan xotin-qizlar sonini aniqlash. Xotin-qizlar qo'mitasi boshlang'ich tashkiloti a'zolarini saylash. Ishchi guruhini tasdiqlash.	Yil boshida	Qomita boshlang'ich tashkiloti raisi
2	Maktab Xotin-qizlar qo'mitasi boshlang'ich tashkiloti o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 25-maydagi "O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi boshlang'ich tashkiloti faoliyatini qo'llab quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 3434-sonli farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 29-sonli shu farmonini ijrosini ta'minlash yuzasidan qabul qilingan qarorini keng targ'ibot qilish maqsadida jadval asosida suhbatlar uyushtirish.	Yil boshida	Qomita boshlang'ich tashkiloti raisi, kotibi
3	O'zbekiston respublikasi Prezidentining "2009-2013 yillarda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog'lom bola tug'ilishini, jismoniy va barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2009-yil 1-iyuldagi PQ-1144-sonli qarorining ijrosi bo'yicha yuqori sinf o'quvchi qizlari o'rtasida "Reproduktiv salomatlik haqida nima bilasiz?", "Jismoniy va barkamol avlod" mavzularida davra suhbatlari tashkillash.	2012 yil mart	Xotin-qizlar qo'mitasi boshlang'ich tashkiloti raisi
4	Xotin – qizlar haq-huquqlarini himoya qiluvchi O'zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan qonunlar, farmonlar va qarorlar sharhi bilan tanishtirib borish	Huquqiy savodhonlik kunlari	Qomita boshlang'ich tashkiloti raisi, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
5	Maktab ayol o'qituvchi xodimlar, o'quvchi qizlar o'rtasida "Zulfiya" mukofotiga nomzodlarni olib borayotgan ishlari bilan keng jamoatchilikni tanishtirib borish.	Yil davomida	Adabiyot o'qituvchilari bilan birga
6	"Zulfiyaxonim qizlari" klubi ishlarini nazorat qilish.	Muntazam	Qomita boshlang'ich tashkiloti raisi
7	Xotin-qizlar intellektual saviyasini yuksaltirish	Muntazam	Ona tili va

	maqsadida “Zakovat”, “O’yla, izla, top” o’yinlarini tashkillash.		adabiyot fani o’qituvchilari
8	Yoshlar o’rtasida OITS va giyohvandlikni oldini olish maqsadida “OITS siz kelesak sari”, “Giyohvand moddalarsiz kelajak sari” dasturlarini amalga oshirish va maktabda qizlar uchun gigenik xonalarni tashkil qilinganligini nazorat qilish	Noyabr-dekabr	Qomita boshlang’ich tashkiloti raisi, Jismoniy tarbiya o’qituvchisi, hamshira
9	Maktabda Xotin-qizlarni turli diniy ekstremistik oqimlar girdobida qolmasliklari uchun tushuntirish ishlari olib borish.	Huquqiy savodxonlik kunlari	Qomita boshlang’ich tashkiloti raisi
10	Ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarni barqarorlashtirishga bag’ishlangan yig’ilishlarni tashkillashda faol ishtirok etish.	Belgilangan tartibda	MMIB direktor o’rinbosari
11	Maktabda mahalla bilan hamkorlikda “Maktab oila, mahalla” markazi bilan hamkorlikda tadbirlar o’tkazish.	Belgilangan tartibda	Mahalla bilan hamkorlikda
12	Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Voyaga etmaganlar” ishlari bo’yicha komissiyaning “Voyaga etmaganlar o’rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarlikning oldini olish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning 2011-2015 yilarga mo’ljallangan chora-tadbirlar Dasturi” ijrosi bo’yicha dasturda belgillangan tadbirlar bilan ayol pedagoglar va o’quvchi qizlarni tanishtirish.	Huquqiy savodxonlik kunlari	Ishchi guruhi
13	Maktabda sportni rivojlantirish maqsadida voleybol, basketbol, tennis bo’yicha “Sog’lomjon-polvonjon”, “Umid niholari” musobaqasini o’tkazish.	6-7-mart	Jismoniy tarbiya o’qituvchilari
14	Maktabda 9-sinflar o’rtasida “Tuhfa” ko’rik-tanlovini, 8-sinf qizlari o’rtasida “Zukko qizlar”, 5-7-sinf qizlari o’rtasida “Iqbol”, “Balli qizlar” hamda ayollar o’rtasida “Oqila ayol” ko’rik-tanlovlarini tashkillash.	Yanvar, mart	Qomita boshlang’ich tashkiloti raisi, ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi
15	Maktabda xotin-qizlar tibbiy savodxonligini oshirish bo’yicha suhbatlar tashkillash va o’z vaqtida tibbiy ko’rikdan o’tishlarini qat’iy nazorat qilish.	Doimo	Hamshira, salomatlik markazi xodimlar, QVP hakimlari bilan
16	2012 yilning “Mustahkam oila yili” munosabati bilan “Mustahkam oila yili” Davlat dasturining ijrosini ta’minlash maqsadida turli davra suhbatlari uchrashuvlar tashkillash	Muntazam	Maktab ma’muriyati
17	Qizlarni mustaqil hayotga, turmushga tayyorlash, bo’sh vaqtlarini unumli o’tkazish maqsadida	Muntazam	Ishchi guruhi

	19“Ibratli bekam”, “Mashhura” o’quv markazlariga hamda “To’quvchilik”, “Elita pardalari tikish”, “Pishiriqlar”, “Sartaroshlik” kabi yo’nalishlar bo’yicha mashg’ulotlarga jalb etish.		
18	Maktabda xotin-qizlarning dam olishlarini tashkillab berish	Muntazam	Qomita boshlang’ich tashkiloti raisi, kasaba uyushmasi raisi
19	Har bir sinf qizlari bilan “Qiz bola uyning sarishtasi”, “Onam-sirdoshim”, “Eng yaqin dugonam”, “Did bilan kiyinishni bilasizmi?”, “O’g’il bola bilan do’stlik munosabatlari”, “Mening hobbim” kabi mavzularda suhbatlar tashkillash.	Belgilangan tartibda	Qomita boshlang’ich tashkiloti raisi
20	Maktab qizlari o’rtasida ginekolog shifokor bilan uchrashuv o’tkazish.	Fevral	Qomita boshlang’ich tashkiloti raisi, ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi
21	5-9-sinf o’quvchi qizlari o’rtasida “Kimning sinfi toza”, “Kimning guli ko’p” kabi tanlovlar o’tkazish.	Oktabr, mart	Boshmang’ich sinf o’qituvchilari
22	Yangi yil, “Navro’z” bayrami munosabati bilan turli yarmarkalar tashkillash, ilg’or qizlarni turli naminatsiyalar bo’yicha rag’batlantirish.	Dekabr, mart	Qomita boshlang’ich tashkiloti raisi, Mehnat fani o’qituvchisi
23	“Qizlar ovozi” ro’znomasi sahifalarini nazorat qilish, faol qizlarni rag’batlantirish.	Muntazam	Qomita boshlang’ich tashkiloti raisi
24	Ayol pedagog xodimlar, o’quvchi qizlarni formada kelishlarini doimo nazorat qilish.	Doimo	Maktab ma’muriyati
25	Sevimli shoiramiz Zulfiya Isroilovanning tavallud kuni munosabati bilan “Zulfiyaxonim qizlari” ko’rik tanlovini tashkillash.	1-mart	Mehnat fani o’qituvchisi
26	“Qiz bolalar” kengashi bilan “o’g’il bolalar” kengashi o’rtasida hamjorlikni kuchaytirish, “Ofarin” o’g’il bolalar ko’rik tanlovini tahskillash va o’tkazish.	6-mart	Qomita boshlang’ich tashkiloti raisi, O’g’il bolalar kengashi raisi
27	8-mart xotin-qizlar bayramini mazmunli tashkillash maqsadida o’quvchi ayollar ishtirokida “Ayol olamni tebratar” mavzusida bayram tadbirini tayyorlash va yuqori saviyada o’tkazish	4,7-mart	Qomita boshlang’ich tashkiloti raisi, jna tili va adabiyot fani

			o'qituvchisi
28	Ilm fan sohasida uzoq yillar xizmat ko'rsatgan faxriy ustozlar, faoliyat ko'rsatayotgan tajribali o'qituvchilar ishtirokida "Sizga o'xshagim keladi" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy uchrashuv tashkillash.	Aprel	MMIB direktor o'rinbosari, Qomita boshlang'ich tashkiloti raisi
29	Erta nikohni oldini olish bo'yicha ota-onalar, mahalla faollar va yoshlar o'rtasida tushuntirish ishlari olib boorish	May	QBP hakimlari, MFY maslahatchilari, maktab hotin-qizlar qo'mitasi boshlang'ich tashkiloti

**Maktab Xotin-qizlar qo'mitasi boshlang'ich tashkiloti qoshida tashkil etilgan
"Zulfiyaxonim qizlari" klubining tuzgan
ISH REJASI**

2-ilova

T/r	Qilinadiganm ishlar	Muddati	Ma'sul shaxs
1.	Maktab o'quvchilarining kiyinish madaniyati – yagona formani qabul qilish to'g'risida	2012 yil sentabr	Xotin-qizlar qo'mitasi boshlang'ich tashkiloti raisi klub rahbari
2.	"Zulfiyaxonim" qizlari klubi guruhi va a'zolarini saylash	Oktabr	Klub rahbari
3.	"Pardoz-andoz o'quvchiga hosmi?" mavzusida suhbat o'tkazish	Noyabr	Klub rahbari
4.	Yangi yil bayramini uyushqoqlik bilan kutib olish. (devoriy gazeta chiqarish, archa va sahnani bezatish)	Dekabr	Ishchi guruhi
5.	Yanvar oyigacha amalga oshirilgan ishlar hisobotini eshitish va II-yarim yilga qo'shimcha vazifalarni belgilash	Yanvar	Klub faollari
6.	"Zulfiya" nomidagi Davlat mukofatiga nomzodlarni aniqlash va ularni saralash.	Muntazam	Klub rahbari
7.	1-mart Zulfiya tavalludiga atab "Zulfiyaxonim izdoshlari" tadbiriga tayyorlanish va uni o'tkazish	Fevral- Mart	Ishchi guruhi
8.	Klubga a'zo bo'lgan qizlarni ma'lum yo'nalish bo'yicha qobiliyatini aniqlash ularga yo'nalishlar bo'yicha qo'shimcha to'garaklarga jalb etish	Doimo	Ishchi guruhi
9.	"Zulfiyaxonim" qizlari ko'rik tanlovining maktab bosqichini o'tkazish. (ma'lum bir yo'nalish yoki mavzu bo'yicha)	Aprel-May	Klub rahbari Ishchi guruhi

“Zulfiyaxonim klubi” qizlari haqida.

1. Ismi, sharifi, otasining ismi _____

2. Tug'ilgan yili, oyi, kuni _____

3. Manzilgohi _____

4. Tanlagan kasbi _____

5. Yoqtirgan fani _____

6. Bo'sh vaqtingizda nima bilan shug'ullanishni yoqtirasiz?

7. Qaysi taomni yoqtirasiz? _____

8. Qaysi rangni yoqtirasiz? _____

9. Qaysi to'garaklarga a'zo bo'lgansiz? _____

10. Kelajakdagi orzularingiz? _____

11. Hayotdagi shioringiz? _____

12. Qaysi badiiy asar qahramoni sizga yoqadi va unga o'xshashni xohlaysiz?

**“Zulfiyaxonim izdoshlari” mavzusida adabiy
kompazitsiya. (shoira Zulfiya Isroilova tavallud kuni munosabati bilan
o’tkaziladi).**

Maktab zali chiroyli ko’rinishdagi Zulfiyaxonim portretlari, sharlar, gullar bayramona tarzda bezatildi.

Maktab qoshida tashkil etilgan “Zulfiyaxonim qizlari” to’garagining iqtidorli ishtirokchi qizlari tomonidan chiroyli ko’rgazmali ashyolar, zalning ko’rinishiga bejirim bezak berib turibdi.

Bayram boshlandi. Dilga yaqin sayoz musiqa ostida sahnaga boshlovchi qiz kirib keldi.

B: Assalom deyajakman ey ona xalqim,
 Sening minnati yo’q bo’stonlaringa.
 Boshimni egibon qilgayman ta’zim,
 Ta’rifda adog’siz dostonlaringga.

Assalomu alaykum ko’ngli osmon ustozlar, mehr nuri yo’g’rilgan aziz mehmonlar, aziz o’quvchilar!

Sizni bugungi mana shunday ulug, nurafshon, muborak 1-mart kuni ardoqli shoira Zulfiya Isroilovaning tavallud topgan kunida, uning qutlug’ 96 yoshi ayyomida ko’rib turganimizdan behad xursandmiz. Bugungi tadbirni ochib berish uchun maktabimiz direktori X.Rahmonovani sahnaga taklif etamiz.

B: Xalqim sening buyuk avlodlaring bor,
 Shu sabab yorqindir har bir tunlaring.
 Har onimda seni qutlayin takror,
 Yurtim, baxtdir menga yaxshi kunlaring.

Zulfiyaxonim o’z she’rlari bilan o’zbek she’riyatining jahon minbarida baralla jaranglayotgan ovozigaga egadir. Zulfiya she’riyati hayotbaxsh lirik tuyg’ularga, yangi fikrlarga, chuqur mazmunga, teran hissiyotga, ajoyib obrazlarga, rang-barang tasviriy vositalarga boydir.

Maktabimizda Zulfiyaxonimdek teran fikrlaydigan iqtidorli va iste’dod sohibalari ta’lim oladilarki, ularning bunday mahoratlarini tan olmay ilojimiz yo’q. Maktabda tashkil etilgan “Zulfiyaxonim qizlari” klubiga mana shunday qizlar a’zo bo’lgan. Bu qizlarimiz bugun 1-mart Zulfiya tavallud topgan kunga atab, “Zulfiyaxonim izdoshlari” deb nomlangan tadbirni hukmingizga havola qilish arafasidadirlar. Bugun tadbirimiz biroz o’zgacharoq tusda bo’lib o’tadi. Maktabimizning 9A,B,D sinf qizlari 4 ta yo’nalishda berlashadilar. Buni sizlarga tanishtirib o’tsam.

1. “Adabiyot” yo’nalishi. (she’r yozish) 5 daqiqa
2. “Madaniyat” yo’nalishi. (sahna ko’rinishi) 5 daqiqa
3. “To’quvchilik” yo’nalishi. (biror buyumni qisqa fursatda to’qib korsatish) 5 daqiqa

4. Guruh sardorlari tezkor savollarga javob beradilar, guruhlari nomini ta'riflashadi.

Qizlarimizning ushbu yo'nalishlari bo'yicha mahoratlarini aniqlab borish uchun hakamlar hay'ati bilan tanishtiraman.

1. Xotin-qizlar qo'mitasi boshlang'ich tashkiloti raisi: H.Nosirova
2. Ona tili va adabiyot o'qituvchisi: F.Nabiyeva
3. Maktab psixologi: J.Mo'ydinova

Endi davraga qizlarimizni taklif etamiz.

9-“A” sinfning “Boychechak” guruhi

9-“B” sinfning “Bahor” guruhi

9-“D” sinfning “Qaldirg'och” guruhi

Mana qizlarimiz sahnaga moslashib ham oldilar. Kelinglar bellashuvni boshlashdan oldin “Zulfiyaxonim hayoti va ijodi”ga bag'ishlangan ma'ruzaga bersak. (ma'ruza o'qiladi).

B: Endi bellashuvni boshlasak.

1-yo'nalish “Adabiyot”.

Qizlar bu yo'nalishda hamkamlar hay'ati tomonidan berilgan mavzuga bag'ishlab 5 daqiqa ichida to'rtlik yozib berishlari kerak. Qizlar bu shartni bajargunlariga qadar, qizlarimiz tayyorlab kelgan she'rlarni tinglasak.

2-Madaniyat yo'nalishi:

Qizlar tayyorlab qo'yilgan konvertlarni birini tortib, unda qaysi asar keltirilgan bo'lsa 5 daqiqa ichida tayyorgarlik ko'radilar va sahnada rollar asosida ijro etib beradilar. Tayyorgarlik ko'rgunlariga qadar 8-“D” sinf qizlari ijrosida chiroyli bir raqs tomosha qilamiz.

3-yo'nalish: “To'quvchilik”.

Qizlar 10 daqiqa ichida biror bir buyumni to'qib ko'rsatadilar.

Shartni bajarish vaqtida 9-“A” sinf o'quvchisi Hoshimoz Ulug'bek ijrosida qo'shiq tinglaymiz.

4-yo'nalish: guruh sardorlari bellashadilar. Sardorlar guruhlari nomini ta'riflashlari va ularga berilgan tezkor 10 ta savolga javob berishlari kerak bo'ladi.

Ushbu yo'nalishlarni hakamlar hay'ati baholaguncha 8-“B” sinf qizlari ijrosida raqs tomosha qilamiz.

Hakamlar hay'ati har bir yo'nalish g'oliblarini e'lon qiladi, sovg'alar beriladi. Tadbir so'ngida 9-“B” sinf qizlari tayyorlab kelgan raqsga navbatni beramiz.

Har bir shart yakunida hakamlar hay'ati guruhlarga baho berishadi va tadbir so'ngida 4 ta yo'nalish bo'yicha g'olib guruh aniqlanadi.

Guruh a'zolari maktab Xotin-qizlar qo'mitasi boshlang'ich tashkiloti tomonidan taqdirlanadilar.

S H A R T N O M A

“ _____ ” _____ 2012 yil

Log'on shaharchasi

Bizlar quyida imzo chekib shartnoma tuzuvchilar:

Birinci tomondan Farg'ona tumani Log'on Q.F.Y tassaarufidagi
_____ mahalla raisi.**I. SHARTNOMANI MAZMUNI.**

Qishloq hududida yashovchi xotin-qizlarni ijtimoiy muhofaza qilish, ular faolligini oshirish maqsadida.

II. TOMONLAR MAJBURIYATI

QFY ga qarashli _____ mahalla raisi:

- Prezidentimiz I.A.karimovning va hukumatimiz tomonidan imzolanayotgan xotin-qizlar faoliyatiga doir barjcha hujjatlarni o'rganib boradi va amalgam tadbiq etadi.
- mahalla hududida yshovchi xotin-qizlarni har tomonlama nazorat qiladi.
- ularga yetarlicha yordam, maslahat beradi.
- namunali oilalar hayoti misolida turli ommabop tadbirlar o'tkazadi.
- mahalla hududida yashovchi nosog'lom oilalarni nazorat ostiga oladi.
- mehnatga layoqatsiz bo'lgan xotin-qizlarni ish bilan ta'minlashga ko'maklashadi.
- moddiy yordamga muhto xotin-qizlarga yetarli sharoit yaratib beradi.
- faol ayol-qizlarni rag'batlantirib boradi.
- "Mahalla, maktab, oila" konsepsiyasi bo'yicha izchil ish olib boradi.
- milliy bayramlar, an'analarni tashkillash va qadriyatlarimizni tiklash borasida muntazam ish olib boradi.
- mahalla hududida yashovchi ayollarni foydali mehnatga jalb qilish maqsadida kasanachilikni rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shadi.
- maktab bilam doimiy aloqada va hamkorlikda bo'ladi.
- reproduktiv salomatlik bo'yicha ish olib boradi.
- o'quvchi qizlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchiliklarni oldini olish bo'yicha izchil ish olib boradi.

III. MAKTAB MA'MURIYATI TOMONIDAN

- Prezidentimiz **I.A.Karimovning** va hukumatimiz tomonidan imzolanayotgan xotin-qizlar faoliyatiga doir barjcha hujjatlarni o'rganib boradi va amalgam tadbiq etadi.
- "O'g'il bolalar" kengashi bilan hamkorlikda ish olib boradi.
- Maktabda ishlayotgan xotin-qizlarha imkon darajasida har tomonlama sharoit yaratadi.

- Maktab o'quvchi qizlarining o'qishi, tarbiyasi, yurish-turishi diqqat markazida bo'ladi.
- Xotin-qizlarning sog'lig'ini nazoratga olishni tahskillaydi.
- To'liq tibbiy ko'rikdan muntazam o'tkazilishiga ko'maklashadi.
- An'anaviy tadbirlarda faollikni qo'lga oladi.
- Muntazam ravishda "Qizlar davrasi", "Tuhfa", "Tasanno" ko'rik tanlovlarini o'tkazib boradi.
- "Mahalla, maktab, oila" konsepsiyasi bo'yicha izchil ish olib boradi.
- O'quvchi qizlarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkillash maqsadida turli to'garaklar tashkillaydi, ularni turli sport to'garaklariga jalb etadi.
- "Zulfiya" nomidagi Davlat mukofoti nomzodlarini aniqlaydi va ularga doimiy ko'mak beradi.
- Namunali oila bekalari bilan uchrashuv, davra suhbatlari o'tkazish.
- Shifokorlar bilan turli mavzularda savol-javob tariqasida qiziqarli tadbirlar uyushtiradi.
- Faol ayol xodimlar va o'quvchi qizlarni o'z vaqtida rag'batlantirib boradi.
- Qizlarni hayotga, turmushga tayyorlash borasida turli tadbirlar o'tkazadi.

Mahalla raisi:

49-maktab direktori:

X.Rahmonova

**14-yanvar “Vatan himoyachilari kuni” munosabati bilan yigitlarga sovg’a
sifatida maktabning 9-sinf qizlari o’rtasida o’tkazilgan “Tuhfa” ko’rik-
tanlovi**

Kirish so’zi: tabrik

Qo’lim ko’ksimdadir, do’stlar assalom,
Niyatim nurdek pok, tinoh bo’ling demak.
Shirin so’z ko’p erur, ko’pdir hushkalom,
Lekin salom so’zi baribir bo’lak.

Insonning insonga bergan salomi,
Tinch oqsin degani, notinch bu hayot.
Salomdan boshlanar shuning uchun hart un,
Salomni dillarga baxsh etur ziyo.

Tadbirni shunday chiroyli kalom va salomlar bilan maktab Xotin-qizlar qo’mitasi boshlang’ich tashkiloti raisi X.Nosirova boshlab berdi va so’zni ma’naviyat – ma’rifat ishlari bo’yicha direktor o’rinbosari Q.Xojayevga berdi. Q.Xojayev tadbirni ochar ekan, Vatan himoyachilari kuni bilan barcha yigitlarni va shu bilan birga maktabimizga mehmon bo’lib kelgan harbiylarni tabrikladi. Boshlovchi barchani hakamlar hay’ati bilan tanishtirdi.

1. Rais – D.Ibragimova
2. A’zolari – F.Nabiyeva
3. A’zolari – U.Mamadazizova
4. A’zolari – G.Qobilova
5. Ballarni nazorat qiluvchi – M.G’ofurova

Ko’rik tanlov shartlari:

1. Bilimdonlik borasida taniqli yozuvchi va shoirlarga 6 tadan kam bo’lmagan ta’rif berish.
2. Ko’rik-tanlov nomi bilan bayram sharafiga biror bir sovg’a, tuhfa tayyorlash – epchillik bobida 10 (daqiq).
3. Pazandachilik sohasida har qanday bayram, yo’qlovlar ko’rki bo’lgan “Chak-chak” tayyorlash (15 daqiqa).
4. Erkin mavzu.

Marhamat, qatnashchilarni kutib oling.

1-raqam ostida – 9-“A” sinf o’quvchisi Hakimova Sadoqat

2-raqam ostida – 9-“D” sinf o’quvchisi Mo’sinjonova Fotima

3-raqam ostida – 9-“D” sinf o’quvchisi Mamaro’ziyeva Olmaxon

4-raqam ostida – 9-“B” sinf o’quvchisi Rahmatova Maftuna

5-raqam ostida – 9-“B” sinf o’quvchisi Xolmatova Surayyo

6-raqam ostida – 9-“A” sinf o’quvchisi Aminjonova Madina

Qatnashchi qizlar anketalari o’qiladi.

Har bir qatnashchiga o'ziga xos ta'rif berildi va qatnashchi qizlar ijrosida "O'zbekim qizlari" qo'shig'iga raqs.

1-shart. "Bilimdonlik borasida taniqli yozuvchi va shoirlarga 6 tadan kam bo'lmagan ta'rif berish".

Bu shartda qizlar o'zlarining bilimdonlik va aql – zakovotlari borasida bir-birlaridan also qolishmadilar va o'zlarining o'zbek va rus shoir, yozuvchilari borasida o'rgangan bilimlarini namoyon qildilar.

1shart baholangunga qadar 8-sinf o'g'il bolalari ijrosida "Omadli jeltimentlar".

1-shart bo'yicha to'plangan ballar:

1. Hakimova Sadoqat – 16 ball
2. Mo'sinjonova Fotima – 20 ball
3. Mamaro'ziyeva Olmaxon – 8 ball
4. Rahmatova Maftuna – 20 ball
5. Xolmatova Surayyo – 20 ball
6. Aminjonova Madina – 20 ball

2-shart "Bayram sharafiga biror bir sovg'a, tuhfa tayyorlash".

Bu shartga 10 daqiqa vaqt ajratiladi.

Qizlar qiziqish bilan ishni boshlab yubordilar. Sadoqat daraxt po'stlog'idan olib, unga turli bezaklardan ishlov bermoqda. Fotimaxon esa bahor gullaridan qish fasli bo'lishiga qaramay, turli qiyqim matolardan ajoyib guldasta yasamoqda. Qani, Olmaxon nima qilayotgan ekan? U bayram dasturxoni uchun shirinliklardan piramida yasabdi. Maftunachi, u qizlarning soch to'g'nagichlari solinadigan ajoyib quticha yasamoqda. Surayyo rasm solgich, Madina esa turli tashlandiq g'altak qoldig'i va keraksiz idishdan salfetka solish uchun idish yasadi.

Qizlar tayyorlagan sovg'alarni o'zlari ta'riflab berdilar. Hakamlar hay'ati bu shartni baholagunga qadar Gulhayo ijrosida ajoyib bir raqs ijro etiladi.

2-shart bo'yicha to'plangan ballar:

1. Hakimova Sadoqat – 20 ball
2. Mo'sinjonova Fotima – 20 ball
3. Mamaro'ziyeva Olmaxon – 18 ball
4. Rahmatova Maftuna – 13 ball
5. Xolmatova Surayyo – 16 ball
6. Aminjonova Madina – 19 ball

3-shartda qizlar o'zlarining pazandachilik sohasida o'rganganlarini nomoyon qiladilar va bayram va yo'q'lovlar ko'rki bo'lgan **"Chak-chak"** tayyorlash bo'yicha o'zlarining mahoratlarini sinab ko'radilar.

Qani, qizlarimizning ishlarini bir kuzataylikchi, qizlar bu borada ham ancha mahoratga ega ekanlar. Har biri o'zgacha usul bilan chak-chak tayyorlamoqdalar. Nihoyat chak-chaklar ham tayyor bo'ldi. Hakamlar hay'ati har bir chak-chakni yeb ko'rib, uni shakli va mazasiga baho berdilar.

1. Hakimova Sadoqat – 16 ball
2. Mo'sinjonova Fotima – 17 ball
3. Mamaro'ziyeva Olmaxon –168 ball
4. Rahmatova Maftuna – 20 ball
5. Xolmatova Surayyo – 18 ball
6. Aminjonova Madina – 18 ball

Chak-chak tayyorlash bobida Maftuna anchagina usta ekan, eng yuqori ball unga nasib etdi. Qizlarning tayyorlagan chak-chaklarini hakamlar hay'ati raisi Ibragimova Diloromxon izohlab beradi.

4-shart erkin mavzu.

Bu shartda qizlar o'zlari qiziqqan sohalari bo'yicha tayyorlanib kelganlar. Har biri o'zlarining mahoratlarini namoyon etadilar.

1. Hakimova Sadoqat – pazandachilik bobida o'zi yoqtirgan salatini tayyorlab berdi.
2. Mo'sinjonova Fotimaxon esa salatlar tayyorlash bobida o'zining mahoratini ko'rsatib berdi.
3. Mamaro'ziyeva Olmaxon bo'sh vaqtlarida raqs tushish bilan shug'ullansa kerak, bizning e'tiborimizga ajoyib bir raqs havola etdi.
4. Rahmatova Maftuna tikuvchilikka qiziqar ekan, qizlarimiz uchun munchoqlardan ajoyib bir bilakuzuk tayyorladi.
5. Xolmatova Surayyoning adabiyot faniga qiziqishi baland ekan. U "Onajon" she'rini shunday berilib o'qidiki, hammaning ko'zidan yosh chiqib ketdi.
6. Aminjonova Madina esa tikuvchilik bobida o'z mahoratini namoyon etib, qo'g'irchoqlar uchun chiroyli ko'ylak tikdi.

Bu shart va umumiy hisob-kitob e'lon qilungunga qadar 9-"B" sinf o'quvchisi Olimjonova Oliyaxon ijrosida raqs.

4-shart va hisob-kitob bo'yicha to'plangan ballar:

1. Hakimova Sadoqat – 20 ball– 72 ball
2. Mo'sinjonova Fotima – 20 ball– 77 ball
3. Mamaro'ziyeva Olmaxon –20 ball– 62 ball
4. Rahmatova Maftuna – 18 ball– 71 ball
5. Xolmatova Surayyo – 18 ball– 72 ball
6. Aminjonova Madina – 20 ball– 77 ball

Ishtirokchilarda 1-o'rin uchun Mo'sinjonova Fotimaxon va Aminjonova Madinaxonning to'plagan ballari teng bo'ldi. Shuning uchun ular o'rtasida "Bahrubayt" o'tkazildi va Aminjonova Madina g'olib chiqib 1-o'ringa sazovor bo'ldi. Qizlarga xotin-qizlar qo'mitasining maxsus sovg'alari topshirildi.

Shunday qilib bugungi 14-yanvar - Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlab o'tkazilgan "Tuhfa" ko'rik-tanlovi o'z nihoyasiga yetdi.



Qizlar o'rtasida o'tkazilgan "Tuhfa" ko'rik-tanlovidan lavhalar



Qizlarning mahoratini adolatli baholash hakamlar hay'atidan katta mas'uliyat talab etadi.



**“Manti”
yeyish oson emas ekan..**



Qanday qilsam chiroyli bo’lar ekan?



“O’g’il bolalar kengashi” bilan hamkorlik davom etadi.



“Ofarin” ko’rik-tanlovi ishtirokchilari pazandalik bobida bellashmoqdalar.



Tanlov ishtirokchilari o'zlari yoqtirgan qo'shiqni jonli ijro etgan holda navbatdagi shartni bajarishmoqda.



Bo'yinbog' (galstuk) tugish oson emas ekan...



Nosirova Hayotxon Zokirovna 1968 yil 20 mayda tug'ilgan.

1990 yilda Farg'ona Davlat pedagogika institutining rus tili va adabiyoti fakultetini tamomlagan. Oilali.

Ish faoliyatini Farg'ona tumanidagi 44-o'rta maktabda boshlagan. 1993-1991 yillarda mazkur maktabning tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari vazifasida ishlagan. 1996-yildan hozirgi kunga qadar Farg'ona tumanidagi 49-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida rus tili fani o'qituvchisi, 2005-yildan maktab Xotin-qizlar qo'mitasi boshlang'ich tashkiloti raisi, BDMM Dasturi doirasida olib borilayotgan ishlarni monitoring qilish viloyat guruhining tumandagi vakili, tuman monitoring guruhi rahbari.

Oliy toifali o'qituvchi Nosirova Hayotxon Zokirovna 2004 yildan buyon maktabda uzluksiz ravishda o'tkazilayotgan "Zakovat" intellektual o'yini tashkilotchisi va boshlovchisi.